

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“ETNOMADANIYAT” FANI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MAZMUNI VA PEDAGOGIK MODEL

Aldasheva Sayyoraxon To‘lqinovna

Andijon davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: annora1976@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-5279-5179>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida “Etnomadaniyat” fani asosida ishlab chiqilgan metodik mazmun va pedagogik model ilmiy jihatdan asoslangan holda taqdim etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi pedagogik ta‘lim tizimida “Etnomadaniyat” fanining kompetensiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va ular asosida samarali metodik tizimni loyihalashtirishdan iborat. Maqolada fanning metodik mazmuni uch muhim jihat — maqsadli yo‘nalishlar, amalga oshirish vositalari va kutilayotgan natijalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, aksiologik, madaniyatshunoslik va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari O‘zbekiston Milliy universitetining 2- va 4-kurs talabalari ishtirokida tashkil etilib, tajriba guruhi (n=42) va nazorat guruhi (n=40) natijalari qiyosiy o‘rganildi. Pedagogik model uchta bosqich — motivatsion-yo‘naltiruvchi, mazmuniy-analitik va amaliy-integrativ bosqichlarni o‘z ichiga oladi hamda sakkiz komponentdan tarkib topadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Etnomadaniyat” fani mavzulari ijtimoiy-madaniy kompetentlikning barcha tarkibiy qismlari — kognitiv, kommunikativ, aksiologik, refleksiv va faoliyatga asoslangan komponentlarni rivojlantirishga muhim hissa qo‘shadi. Yangi “Tizimli–tanqidiy–tahliliy natija” texnologiyasi, GROW-UP modeli va Soft Skills dasturi asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni talabalarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirdi. “Etnomadaniyat” fanining metodik mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-madaniy kompetentlik, metodik mazmun, pedagogik model, “Etnomadaniyat” fani, bo‘lajak o‘qituvchilar, kompetensiyaviy yondashuv, etnopedagogika, madaniyatlararo muloqot.

МЕТОДИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ДИСЦИПЛИНЫ «ЭТНОКУЛЬТУРА»

Алдашева Сайёрахон Тулкиновна

Андижанский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье научно обоснованы методическое содержание и педагогическая модель, разработанные на основе дисциплины «Этнокультура» с целью развития социокультурной компетентности будущих учителей. Основная цель исследования заключается в определении компетентного потенциала дисциплины «Этнокультура» в системе педагогического образования и проектировании на этой основе эффективной методической системы. Методическое содержание дисциплины анализируется с точки зрения трёх ключевых аспектов: целевых направлений, средств реализации и ожидаемых результатов. В исследовании использован комплекс компетентного, аксиологического, культурологического и деятельностного подходов. Опытнo-экспериментальная работа проводилась с участием студентов 2-го и 4-го курсов Национального университета Узбекистана; результаты экспериментальной (n=42) и контрольной (n=40) групп изучались в сравнительном аспекте. Педагогическая модель включает три этапа — мотивационно-ориентировочный, содержательно-аналитический и практико-интегративный — и состоит из восьми компонентов. Результаты показали, что содержание дисциплины «Этнокультура» способствует развитию всех составляющих социокультурной компетентности: когнитивного, коммуникативного, аксиологического, рефлексивного и деятельностного компонентов. Образовательный процесс, организованный на основе новой технологии «Системный–критический–аналитический результат», модели GROW-UP и программы Soft Skills, значительно повысил уровень профессиональной подготовки студентов. Перепроектирование методического содержания дисциплины «Этнокультура» на основе

компетентного подхода создаёт широкие возможности для профессионального и личностного развития будущих учителей.

Ключевые слова: социокультурная компетентность, методическое содержание, педагогическая модель, дисциплина «Этнокультура», будущие учителя, компетентный подход, этнопедагогика, межкультурная коммуникация.

METHODOLOGICAL CONTENT AND PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' SOCIOCULTURAL COMPETENCE THROUGH THE "ETHNOCULTURE" COURSE

Aldasheva Sayyoraxon To'liqinova

Andijan State University, PhD Student.

Abstract.

This article presents a scientifically grounded methodological content and pedagogical model developed through the "Ethnoculture" course to enhance the sociocultural competence of future teachers. The primary aim of the study is to identify the competency-based potential of the "Ethnoculture" course within the teacher education system and to design an effective methodological framework based on this potential. The methodological content of the course is analyzed from three key perspectives: target areas, implementation tools, and expected outcomes. The study employs a combination of competency-based, axiological, cultural, and activity-based approaches. The experimental study was conducted with second- and fourth-year students of the National University of Uzbekistan, with the results of an experimental group (n=42) and a control group (n=40) examined comparatively. The pedagogical model comprises three stages — motivational-orientational, content-analytical, and practical-integrative — and consists of eight components. The findings demonstrate that the topics covered in the "Ethnoculture" course contribute significantly to the development of all components of sociocultural competence, including cognitive, communicative, axiological, reflective, and activity-based components. The educational process organized on the basis of the new "Systemic-Critical-Analytical Result" technology, the GROW-UP model, and the Soft Skills program significantly improved students' professional preparation. Redesigning the methodological content of the "Ethnoculture" course on the basis of a competency-based approach creates substantial opportunities for the professional and personal development of future teachers.

Keywords: sociocultural competence, methodological content, pedagogical model, "Ethnoculture" course, future teachers, competency-based approach, ethnopedagogy, intercultural communication.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal globallashuvi va madaniy xilma-xilligining ortib borishi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda [1]. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari, jumladan, 2020-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va 2022-yilgi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga oid Prezident farmonlari, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligini va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruratini qonuniy asosda mustahkamladi [2; 3; 4]. Pedagogik ta'lim dasturlarida "Etnomadaniyat" fani bo'lajak o'qituvchilarda milliy madaniyat, xalq pedagogikasi va madaniyatlararo muloqot bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi fundamental fan sifatida muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu fanning mavjud o'quv dasturlari ijtimoiy-madaniy kompetentlikni maqsadli rivojlantirishga to'liq yo'naltirilmagan. UNESCO va OECD ekspertlari ham pedagogik ta'limda madaniy kompetentlikni tizimli shakllantirish uchun fanlarning metodik mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalash zarurligini ta'kidlamogda [5; 6; 7]. Mazkur muammoning yechimi yo'nalishida xorijiy tadqiqotchilar D. Deardorff [9], M. Byram [10], J. Banks [11], M. Barrett [12] va mahalliy olimlar A. A. Xoliqov [16], R. X. Hasanov [17] ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish bo'yicha nazariy asoslar yaratgan. Shunga qaramay, "Etnomadaniyat" fanining metodik mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etish va unga asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish masalasi o'rganilmagan bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — "Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmunini aniqlash va pedagogik modelini ishlab chiqib, uni tajriba-sinov orqali asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik masalasi xorijiy pedagogika va psixologiya fanlarida 1990-yillardan boshlab faol tadqiq etila boshlandi. Deardorff [9] o'zining protsessual modelida madaniyatlararo kompetentlikni bilim, ko'nikma, munosabat va ichki/tashqi natijalar orqali aniqlagan holda kasbiy tayyorgarlik uchun uning ahamiyatini asoslaydi. Byram [10] madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikning besh komponentli modelini taklif etib, ta'limdagi amaliy qo'llanilishini ko'rsatadi. Banks [11] va Barrett hamda Byram [12] multikulturalizm va demokratik fuqarolik tarbiyasi kontekstida madaniy kompetentlikni rivojlantirishning global ahamiyatini asoslaydi. UNESCO [5] va OECD [6; 7]

hujjatlari ham kelajak pedagoglarining global kompetentlik va madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini ta'lim tizimining strategik vazifasi sifatida belgilaydi. Council of Europe [13] esa demokratik madaniyat kompetensiyalari bo'yicha umumiy ramka (RFCDC) orqali ushbu kompetentliklarni standartlashtirishga katta hissa qo'shdi. O'zbekistonda Xoliquov [16] pedagogik mahorat va Hasanov [17] kompetensiyaviy ta'lim masalalari bo'yicha nazariy va amaliy asoslar yaratdi. Garrison [15] esa raqamli muhitda o'qitishning o'rni va imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Nieto [14] til, madaniyat va ta'limning o'zaro bog'liqligi masalasini chuqur o'rgangan. Biroq ko'plab tadqiqotlarda "Etnomadaniyat" fani asosida kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmunini tizimli loyihalash masalasi yetarlicha yoritilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-metodik yondashuvlar majmuasi qo'llanildi: (1) kompetensiyaviy yondashuv — ta'lim natijalarini kompetentlik ko'rsatkichlari sifatida belgilash va o'lchash; (2) aksiologik yondashuv — milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish; (3) madaniyatshunoslik yondashuvi — etnomadaniy bilimlarni kontekstual o'rganish; (4) faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv — ta'lim jarayonida amaliy kompetentlikni shakllantirish. Tajriba-sinov ishi 2022–2024-yillarda O'zbekiston Milliy universitetida o'tkazildi. Tadqiqotda 2- va 4-kurs talabalari ishtirok etdi: tajriba guruhi (n=42) va nazorat guruhi (n=40). Tajriba guruhida yangi metodik mazmun va pedagogik model tatbiq etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish tizimi saqlab qolindi. Dastlabki va yakuniy diagnostika sifatida Byram modeli asosida ishlab chiqilgan kompetentlik ko'rsatkichlari, baholash varaqalari, portfoliolar va refleksiv jurnal metodidan foydalanildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda sifatii va miqdoriy tahlil usullari birgalikda qo'llanildi. Kuzatish, suhbat, fokus-guruhlar va hujjatlar tahlili orqali to'plangan sifatii ma'lumotlar kompetentlik ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan testlar va baholash natijalarining statistik tahlili bilan uyg'unlashtirildi. Ishlab chiqilgan pedagogik model uchta bosqichdan iborat: I bosqich — motivatsion-yo'naltiruvchi; II bosqich — mazmuniy-analitik; III bosqich — amaliy-integrativ. Har bir bosqich sakkiz komponentni qamrab oladi: maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita, shartlar, nazorat va natija.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarining birinchi yo'nalishi — "Etnomadaniyat" fanining metodik mazmunini uchta asosiy yo'nalish bo'yicha tizimlashtirish hisoblanadi: (1) maqsadli yo'nalishlar, (2) amalga oshirish vositalari, (3) kutilayotgan natijalar. 2.1-jadvalda fanning metodik mazmunining asosiy tarkibiy qismlari aks ettirilgan.

1-jadval. "Etnomadaniyat" fanining metodik mazmuni

Mazmuni	Amalga oshirish vositalari	Kutilayotgan natija
Bo'lajak o'qituvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish	Etnomadaniyat fanining mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish	Ijtimoiy-madaniy jihatdan yetuk, milliy qadriyatlarga sodiq pedagog shaxs shakllanadi
Talabalarda milliy meros, urf-odatlar, an'analar va madaniy qadriyatlarga qiziqish hamda hurmatni shakllantirish	Motivatsion suhbatlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, madaniy uchrashuvlar, debatlar	Madaniy qadriyatlarga ijobiy munosabat va kasbiy motivatsiya rivojlanadi
Etnomadaniyat, etnografiya, etnopsixologiya, etnopedagogika va madaniyatlararo muloqotga oid bilimlarni egallash	Ma'ruza, seminar, mustaqil ta'lim, elektron resurslar, ilmiy loyihalar	Talabalarining etnomadaniy va ijtimoiy-madaniy bilimlari kengayadi
Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash hamda qadrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	Folklor tahlili, qadriyatlar ekspertizasi, muammoli vaziyatlar tahlili	Qadriyatli dunyoqarash va madaniy identifikatsiya shakllanadi
Turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirish	Munozara, debat, guruhli loyiha, rol o'yinlari, madaniyatlararo dialog	Muloqot madaniyati va tolerantlik rivojlanadi
Etnomadaniy bilimlarni pedagogik faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish	Keys-stadi, loyiha metodi, etnografik tadqiqotlar, ekskursiyalar	Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasi shakllanadi
O'z faoliyati va madaniy qarashlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish	Refleksiv kundaliklar, esse, SWOT tahlil, o'z-o'zini baholash	Tanqidiy va refleksiv tafakkur rivojlanadi
Boshqa xalqlar madaniyatini tushunish va hurmat qilishni shakllantirish	Qiyosiy tahlil, xalqaro madaniyatlar taqdimoti, multikultural loyihalar	Bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlanadi

2.1-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "Etnomadaniyat" fanining har bir mazmuny yo'nalishi aniq vositalar orqali amalga oshirilib, o'lchanishi mumkin bo'lgan natijalar bilan bog'liq. Metodik tizim kognitiv, kommunikativ, aksiologik va refleksiv komponentlarni qamrab oladi.

Ikkinchi yo'nalish – "Etnomadaniyat" fani mavzularining ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash. 2.2-jadvalda fanning o'n mavzusi va ularning kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari taqdim etilgan.

2-jadval. "Etnomadaniyat" fani mavzularining ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

Nº	Mavzular	Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari
-----------	-----------------	--

1.	Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Talabalarda etnomadaniy jarayonlarni ilmiy anglash, milliy madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tushunish hamda madaniy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantiradi.
2.	Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati va etnografiyasi muammolari	Turli xalqlar madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3.	O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid manbalar	Milliy identifikatsiya, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantiradi.
4.	Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni	Jamoaviylik, hamkorlik, ijtimoiy faollik va milliy an'analarga sodiqlik fazilatlarini shakllantiradi.
5.	Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba	Milliy ma'naviy merosni anglash, xalq ijodiga hurmat va qadriyatlarni avlodlarga yetkazish mas'uliyatini rivojlantiradi.
6.	O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va dostonlari	Kommunikativ madaniyat, axloqiy qadriyatlar va tarbiyaviy faoliyatda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
7.	Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni	Estetik did, madaniy tafakkur va san'at orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kompetensiyasini rivojlantiradi.
8.	Etnopedagogika va milliy ma'naviyat	Milliy tarbiya tamoyillarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish hamda tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantiradi.
9.	An'anaviy oila va turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni	Oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik madaniyatini shakllantiradi.
10.	O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari	Madaniy merosning tarixiy ildizlarini anglash, diniy bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikka hurmatni rivojlantiradi.

2.2-jadval ma'lumotlari shuni tasdiqlaydiki, "Etnomadaniyat" fanining barcha mavzulari ijtimoiy-madaniy kompetentlikning turli tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Milliy o'zlikni anglash, bag'rikenglik, kommunikativ madaniyat va fuqarolik mas'uliyati kabi ko'nikmalar kompleks ravishda shakllantiriladi [8].

Uchinchi yo'nalish – mavzular mazmunini ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga moslashtirish maqsadida amaldagi va yangilangan mavzularni qiyosiy tahlil qilish hisoblanadi. 2.3-jadvalda amaldagi va yangi mavzular hamda ularning ijtimoiy ahamiyati keltirilgan.

3-jadval. Amaldagi va takomillashtirilgan mavzularning qiyosiy tahlili

№	Amaldagi mavzular	Yangi mavzular	Ijtimoiy ahamiyati
1.	Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Talabalarda etnomadaniyat va ijtimoiy-madaniy kompetentlikning o'zaro bog'liqligi haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantiradi.
2.	Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati va etnografiyasi muammolari	Markaziy Osiyo xalqlari madaniy merosi va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi	Turli madaniyatlarga hurmat, bag'rikenglik va madaniyatlararo kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3.	O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid manbalar	Milliy identifikatsiya va etnik o'zlikni anglashning pedagogik asoslari	Talabalarda milliy o'zlikni anglash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantiradi.
4.	Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni	Xalq o'yinlari orqali ijtimoiy hamkorlik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish	Jamoadi ishlash, hamkorlik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5.	Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba	Folklor vositasida ma'naviy qadriyatlar va madaniy tafakkurni shakllantirish	Talabalarda ma'naviy immunitet va milliy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytiradi.
6.	O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va dostonlari	Xalq og'zaki ijodi asosida kommunikativ va aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish	Nutq madaniyati va qadriyatli munosabatlarni shakllantiradi.
7.	Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni	Milliy san'at vositasida estetik va ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish	Talabalarning estetik didi va madaniy dunyoqarashini kengaytiradi.
8.	Etnopedagogika va milliy ma'naviyat	Etnopedagogik qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish	Pedagogik faoliyatda milliy tarbiya imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

9.	An'anaviy oila va turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni	Oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyat madaniyati	Oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglashga yordam beradi.
----	--	---	--

2.3-jadval ko'rsatadiki, yangilangan mavzular amaldagi mavzular mazmunini saqlab qolgan holda ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida kengaytiradi. Yangi mavzular madaniyatlararo muloqot, milliy identifikatsiya va tarbiyaviy kompetensiyalar nuqtayi nazaridan maqsadli yo'naltirilgan. "Tizimli-tanqidiy-tahliliy natija" texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar mavzularni tanqidiy tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va xulosalarni asoslash ko'nikmalarini rivojlantirdi. GROW-UP modeli (Goal – Reality – Options – Way – Upgrade – Practice) orqali talabalar o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiv tafakkur qobiliyati kuchaydi. Soft Skills dasturi doirasida esa muloqot, hamkorlik va kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini oshirish bo'yicha amaliy mashqlar olib borildi. Tajriba-sinov yakunlari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan kompetentlik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sish dinamikasini namoyish etdi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot, milliy qadriyatlarni anglash va pedagogik faoliyatda etnomadaniy bilimlardan foydalanish ko'nikmalarida o'sish yaqqol kuzatildi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. "Etnomadaniyat" fanining metodik mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalash bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning barcha tarkibiy qismlarini — kognitiv, kommunikativ, aksiologik, refleksiv va faoliyatga asoslangan komponentlarni — tizimli shakllantirish imkoniyatini beradi.
2. Ishlab chiqilgan uch bosqichli pedagogik model (motivatsion-yo'naltiruvchi, mazmuniy-analitik, amaliy-integrativ) va sakkiz komponentli tizim bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi.
3. "Tizimli-tanqidiy-tahliliy natija" texnologiyasi, GROW-UP modeli va Soft Skills dasturining birgalikda qo'llanilishi talabalar ijodkorligi, tanqidiy tafakkuri va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi.
4. "Etnomadaniyat" fani mavzularini ijtimoiy-madaniy kompetentlikni maqsadli rivojlantirishga yo'naltirish milliy madaniy merosni o'rganish bilan zamonaviy pedagogik kompetentliklarni shakllantirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.
5. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi: etnomadaniy ta'limning metodik mazmunini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish — elektron resurslar, virtual madaniy uchrashuvlar, multimediali loyihalar — kompetentlik shakllanish jarayonini jadallashtiradi va ta'lim sifatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. – [Manba](#)
3. Mirziyoyev Sh. M. *O'zbekiston XXI asrda*. – Toshkent: Sharq, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*. – [Manba](#)
5. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. – Paris: UNESCO, 2021. – ISBN 978-92-3-100478-5.
6. OECD. *Teachers as Designers of Learning Environments: The Importance of Innovative Pedagogies*. – OECD Publishing, 2021. – DOI: [10.1787/9789264085374-en](#)
7. OECD. *PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education*. – OECD Publishing, 2023. – DOI: [10.1787/53f23881-en](#)
8. Byram M., Golubeva I., Han H., Wagner M. (eds.). *From Principles to Practice in Education for Intercultural Citizenship*. – 2022. – DOI: [10.21832/9781788921060](#)
9. Deardorff D. K. (ed.). *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. – 2nd ed. – 2020. – DOI: [10.4135/9781071872987](#)
10. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence: Revisited*. – 2021. – DOI: [10.21832/9781800410251](#)
11. Banks J. A. *An Introduction to Multicultural Education*. – 6th ed. – Pearson, 2022. – ISBN 978-0135214008.
12. Barrett M., Byram M. (eds.). *Educating for Citizenship in Schools: An Intercultural Approach*. – 2020. – DOI: [10.4324/9780367822651](#)
13. Council of Europe. *Reference Framework of Competences for Democratic Culture (RFCDC)*. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2022.
14. Nieto S. *Language, Culture, and Teaching: Critical Perspectives*. – 3rd ed. – 2022. – DOI: [10.4324/9781003188452](#)
15. Garrison D. R. *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Research and Practice*. – 4th ed. – 2022. – DOI: [10.4324/9781003184089](#)